www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

O‘smirlarda kasbiy qobiliyatlar shakillanishinig ijtimoiy psixologik xususiyatlari

Ag‘amurodov Sarvar Istamovich
Osiyo Xalqaro universiteti
Pedagogika va psixologiya
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlarda kasbiy qobiliyatlar shakillanishi va ulardagi psixik taraqqiyot keng mushohada qilingan. Malaka, layoqat va istedotning nomoyon bo‘lishi kabi psixik xususiyatlar juda izchil tarzda yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Layoqat, qobiliyat, istedot, talant, kasbiy inqiroz, o‘smirlik davrining o‘ziga xos xususiyatlari.

Yoshlarni kasb tanlashlarida ularning qobiliyatlari katta rol o‘ynaydi. Kasbga xos bo‘lgan qobiliyatlarni borligi va bolaning o‘zini qiziqishi to‘g‘ri kasb tanlashga, bu tanlagan kasbidan qoniqish hissini tuyishga olib keladi. Qobiliyati bo‘lgan bolalar o‘zlarini kasb tanlashlaridagi imkoniyatlari bilan boshqa bolalarga nisbatan tez o‘z yo‘llarini topa olishlariga olib keladi.

Qobiliyat - bu insonni individual - psixologik xususiyati bo‘lib, uning faoliyatida ko‘rinadi va bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishiga sharoit hisoblanadi. Qobiliyatda bilimlarni, malakalarni, ko‘nikmalarni egallash oson kechadi va tez egallanadi, chuqur o‘zlashtiriladi, puxta bo‘ladi. Qobiliyatning o‘ziga xos bo‘lgan darajalari mavjud bo‘lib, unga iste’dod, talant va geniylik kiradi. Iste’dod, zehn - bu ko‘pqirrali jarayon bo‘lib, qobiliyatni paydo bo‘lishi uchun asos hisoblanadi. Qobiliyatni rivojlanishida u faqat boshlang‘ich, ilk qadamdir. Talant va geniylik qobiliyatning darajalari hisoblanadi. Talant - bu insonni ma’lum bir faoliyatidagi yuqori darajasi hisoblanadi. Geniylik - bu ijodiy qobiliyatning oliy darajasidir.

Izlanuvchi yoshlar kasb - hunar va uni egallash, hayotlarini, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib kasb - bu inson hayoti uchun zarur bo‘lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o‘ziga xos murakkab bo‘lgan jarayon deb belgilashimiz mumkin. Kasb - bu insonni ma’lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o‘zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo‘lishidir. Kasbga xos bo‘lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog‘liq. Har bir kasbning o‘ziga xos bo‘lgan tomonlari, insonlarni o‘ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo‘lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson o‘zini ruhiyati bilan shu kasbga xos bo‘lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi.

O‘smirlik yoshi - bu davrda o‘smir birinchi marotaba o‘z nafsoniyatiga asosan kasb tanlashga kirishadi. O‘smirlik bu shaxs bo‘lib shakllanishning eng muhim, javobgarlikni his qilish bilan bog‘liq davrdir. Bu davr har xil mehnat turlariga ahloqiy munosabatlar o‘rnatiladigan davrdir. Bu davrda har xil kasbni tanlash bilan bog‘liq qadriyatlar tizimini shakllanishi bilan bog‘liq davr hisoblanadi.

Shunday qilib aytish mumkinki, bu davrda o‘smirlar uchun o‘quv kasbiy yo‘nalishni o‘zlari uchun tanlab olishi eng muhim, zaruriy jarayondir. Bunda ular kasbga va uning yo‘nalishlariga bo‘lgan munosabatlarni shakllantirib boradilar. O‘smirlik davrining, ya’ni jismonan yetilish va ruhan bir xillikka o‘tishi ko‘p jihatdan ularni bosiq va o‘ylab ish qilishga olib keladi. O‘zlarini “Men”ligini tanib borib o‘zlari uchun kerak bo‘lgan kasblarni tanlay oladilar.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o‘zi bu bilim va

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

ko‘nikmalarga taalluqli bo‘lmaydi. Malaka, ko‘nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo‘ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo‘lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi hisoblanadi. Bolada namoyon bo‘ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo‘lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta’lim berilishi, qat’iylik, salomatligining yaxshi bo‘lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko‘pgina sharoitlar bo‘lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turiboq so‘nib ketishi mumkin. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo‘ladi. O‘quvchida ham zaruriy ko‘nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo‘qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko‘rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo‘q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo‘ladi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo‘lishi bilan aql sifatlari xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo‘yish ham mumkin emas. Agar shu sifatlarning birortasi yoki ularning yig‘indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta’siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo‘ladi.

Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo‘lib, shuning bilan birga u ma’lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko‘nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko‘nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. qamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta’minlaydilarki, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo‘lga kiritiladi. qobiliyatli, ammo noshut inson ko‘p narsaga erisha olmaydi. qobiliyat ko‘nikmada ro‘yobga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Kasb psixologiyasi.:- T., TTYI, 2013-y.
2. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya.:- T. 2010-y. 201 b
3. Jalolov.A Kasb qanday tanlanadi.:- T., 2010-y
4. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. “Kasb psixologiyasi”:- T., 2018-y. 295 b
5. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. Darslik. – T., 2010. – 286-321 b.
6. Jalolov, T. S. (2023). PSIXOLOGIYA YO ‘NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARGA SPSS YORDAMIDA MATEMATIK USULLARNI O ‘RGATISHNING METODIK USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 323-326.
7. Jalolov, T. S. (2023). PYTHON INSTRUMENTLARI BILAN KATTA MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 320-322.
8. Jalolov, T. S., & Usmonov, A. U. (2021). “AQLLI ISSIQXONA” BOSHQARISH TIZIMINI MODELLASHTIRISH VA TADQIQ QILISH. Экономика и социум, (9 (88)), 74-77.
9. Sadriddinovich, J. T. (2023). Capabilities of SPSS Software in High Volume Data Processing Testing. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 82-86.
10. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. Modern Science and Research, 2(9), 390-394.
11. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. Modern Science and Research, 2(6), 1223-1226.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

12. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. Modern Science and Research, 2(5), 1009-1014.
13. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O'RNI. Экономика и социум, (12-2 (103)), 675-678.
14. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG 'ISHGAN XULQINING KO 'RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO 'RINISHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 528-532.
15. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G'OYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.
16. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.
17. Akbarovna, I. S. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH.
18. Ikromova, S. A. FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS.
19. Akbarovna, I. S. (2023). DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(6), 26-29.
20. Akbarovna, I. S. (2023). MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
21. Sitora Akbarovna Ikromova. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 50–54.